

**ZAMONAVIY ADVOKAT FIRMALARIDA LEGALTECH
VOSITALARIDAN FOYDALANISH**

Turanov Elbek Abdulla o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Hususiy huquq fakulteti 1-kurs talabasi

E-mail: elbekturanov9@gmail.com

Annotsatsiya. Ushbu tadqiqotda LegalTech vositalarining amaliy qo'llanilishi, ularning huquqiy xizmatlar sifatiga ta'siri va normativ-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Xulosa sifatida, LegalTech texnologiyalarini keng joriy etish advokatlik faoliyatini modernizatsiya qilish va xalqaro talablarga moslashtirishda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: LegalTech, advokatlik firmasi, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, huquqiy xizmatlar, elektron hujjat aylanishi, Raqamli O'zbekiston – 2030, innovatsiya.

Kirish

Globallashuv jarayoni, raqamli texnologiyalarning keng rivojlanishi va internet tarmogining kundalik hayotimizga chuqur kirib borishi natijasida jamiyatning deyarli barcha sohalari yangi bosqichga olib chiqdi.

Zamonaviy jamiyatda yuridik xizmatlar raqamli shaklga o'tib, an'anaviy huquqiy faoliyat usullari o'rnini texnologiyalarga asoslangan yechimlar egallamoqda. Ayniqsa, LegalTech (Legal Technology) tushunchasi bugungi kunda

advokatlik amaliyotining ajralmas qismiga aylangan. Bundan tashqari huquqiy xizmatlar samaradorligini oshirishda, inson omilini kamaytirishda va mijozlar bilan aloqani qulaylashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lyapti .

Shuning uchun, LegalTech vositalarini o'rganish ularning advokatlik amaliyotiga ta'sirini tahlil qilish va milliy huquq tizimida ularni samarali tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada LegalTech vositalarining mazmun-mohiyati, ularning advokatlik faoliyatidagi o'rni, huquqiy asoslari hamda O'zbekiston sharoitida qo'llanish istiqbollari yoritiladi.

Material va metodlar :

Ushbu ilmiy maqola advokatlik firmalarida LegalTech texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida ilmiy tahlil, qiyosiy-huquqiy, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, mantiqiy tahlil hamda empirik kuzatuv usullaridan foydalanildi.

Materiallar sifatida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari ("Advokatlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonun), Adliya vazirligi axborotlari, Xalqaro yuridik tashkilotlarning hisobotlari, shuningdek xorijiy LegalTech platformalari (Clio, LexisNexis, LawGeex, Rocket Lawyer) to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilindi.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston advokatlik firmalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish amaliyoti, predmeti sifatida esa LegalTech vositalarining huquqiy xizmatlar sifatiga ta'siri va ularni huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmlari tanlab olindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida milliy qonunchilik tajribasi xalqaro amaliyot bilan qiyoslanib, Birlashgan Qirollik, AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida LegalTech joriy etish natijalari o'rganildi.

Tadqiqot natijalari:

O‘zbekistonda advokatlik faoliyatini raqamlashtirish: holat, muammolar va istiqbollar

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida adliya tizimini modernizatsiya qilish, ya’ni, advokatlik faoliyatini raqamlashtirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda “E-Adliya”, “E-Sud” va “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” kabi tizimlar orqali yuridik xizmatlarning onlayn namoyish etish yo‘lga qo‘yildi. Bu esa advokatlik firmalariga ish yuritishni soddalashtirish, hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirish hamda mijozlar bilan tezkor muloqotni yo‘lga qo‘yish imkonini bermiqda.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining maqsadi — iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy sohalar va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta’minlash, axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda aholiga va tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishdan iborat.

Strategiyada davlat boshqaruvi va adliya organlari faoliyatida zamonaviy axborot tizimlarini keng joriy etish, elektron davlat xizmatlarini kengaytirish, hujjat aylanishini raqamlashtirish, “E-Adliya” va “E-Sud” tizimlarini rivojlantirish choralari belgilangan.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, LegalTech texnologiyalarining joriy etilishi natijasida advokatlik firmalarining ish samaradorligi 30–40 foizga oshgan. Masalan, Clio platformasi yordamida advokatlar ish soatlarining hisobi, mijozlar bilan yozishmalar va hujjatlarni arxivlashni avtomatik tarzda amalga oshirmoqda. LawGeex esa shartnomalarni sun’iy intellekt orqali tahlil qilib, inson xatoliklarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Clio

Zamonaviy yuridik muhitda raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellektga asoslangan yechimlar, advokatlik firmalarining samaradorligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Shunday platformalardan biri bo'lgan Clio Intelligent Legal Work Platform advokatlik faoliyatining barcha bosqichlarini yagona tizimda birlashtirib, hujjat aylanishidan tortib mijozlar bilan ishlash, billing va tahliliy hisobotgacha bo'lgan jarayonlarni avtomatlashtiradi U nafaqat ma'lumotni saqlaydi, balki undan faol tarzda foydalanadi va har bir qo'llanishda yanada aqlliroq hamda foydaliroq bo'lib boradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Clio bugungi kunda **150 mingdan ortiq yuridik mutaxassis** tomonidan qo'llaniladi va platformadan foydalangan firmalarda ish samaradorligi o'rtacha **30 foizgacha oshgan**. 2024-yilgi "Legal Trends Report" ma'lumotlariga ko'ra, yuridik sohada **sun'iy intellektni faol qo'llayotgan advokatlar ulushi 79 foizga yetgan**.

The screenshot shows the Clio website with a navigation bar including 'Products', 'Practice Types', 'Enterprise', 'Pricing', and 'Resources & Events'. A 'Try Clio for Free' button is visible. The main content area is titled 'A unified legal experience, designed for you' and features four columns representing different firm sizes:

- Solo practitioners:** Run your entire practice from one place, spending less time on admin and more time practicing law.
 - Build a practice that runs smoothly—even when you're on your own
 - Stay in control of every detail, with less effort
 - Get paid faster and keep cash flow steady
- Small law firms:** Win more clients, streamline operations, and increase your profitability.
 - Run your firm like a bigger team—without the overhead
 - Turn time-consuming tasks into automated wins
 - Strengthen client relationships from first call to payment
- Mid-sized law firms:** Reduce overhead, collaborate with multiple teams, and outpace your competition.
 - Keep every case and client connected across your entire firm
 - Gain the visibility you need to make smarter, faster decisions
 - Operate with the sophistication of a large firm—without the bureaucracy
- Large law firms:** Power your large firm or legal department with a platform custom-built for your needs.
 - Unify data, tools, and teams across every office and practice area
 - Gain the intelligence to make strategic, firm-wide decisions
 - Protect your data with enterprise-grade security

Each column has an 'Explore →' link at the bottom.

Bundan tashqari, Clio orqali olingan tahliliy ma'lumotlar advokatlik firmalariga aniq biznes qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Masalan, **utilization rate, realization**
SJIF: 5.051

rate, client conversion, AR aging kabi ko'rsatkichlarni avtomatik tarzda o'lchash va tahlil qilish mumkin. Bu metrikalar asosida firmalar o'z faoliyatini yanada aniqroq rejalashtirib, vaqtni tejaydi va mijozlar bilan aloqani yaxshilaydi. Bular qatorida, Clio ma'lumot xavfsizligi bo'yicha xalqaro standartlarga (SOC 2, ISO 27001) mos ishlaydi va mijozlar maxfiyligini qat'iy himoya qiladi.

Umuman olganda, Clio kabi aqlli yuridik platformalarning joriy etilishi advokatlik firmalariga samaradorlik, ishonchlilik va raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan yangi bosqichni ochmoqda. U an'anaviy vositalardan farqli o'laroq, "taxmin" emas, balki aniq, ishonchli natija beradi ya'ni har bir hujjat, har bir daqiqa va har bir mijoz bilan muloqot raqamli asosda nazorat ostida bo'ladi. Shuning uchun Clio bugungi kunda faqatgina texnologik qulaylik emas, balki advokatlik firmalarining strategik rivojlanishida ishonchli hamkor sifatida qaralmoqda.

LawGeex

LawGeex Advokatlik firmalarida shartnoma tahlilini avtomatlashtiruvchi sun'iy intellekt tizimi. Kengroq qilib aytganda **LawGeex** bu sun'iy intellekt (AI) asosida ishlovchi yuridik texnologiya (LegalTech) platformasi bo'lib, u shartnomalarni avtomatik ravishda tahlil qilish, huquqiy siyosatga (playbook) muvofiqligini baholash hamda xavfli yoki noaniq bandlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu tizim yuridik jarayonlarni optimallashtirish, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirish va advokatlik firmalarida ish samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Lawgeex

Contract Review Automation Platform Company Contact us

Request a demo

Features

THE PLATFORM

DIGITAL PLAYBOOK

ARTIFICIAL INTELLIGENCE

ANALYTICS

Lighten the load

We act as an extension of your legal team, giving you more consistent contract review in a fraction of the time. Our game-changing solution automatically reviews and surgically redlines contracts according to your company's policies – like an attorney, with increased speed and precision.

2014-yilda **Noory Bechor** va **Ilan Admon** tomonidan asos solingan LawGeex kompaniyasi bugungi kunda global miqyosda yirik korporatsiyalar va advokatlik firmalari tomonidan shartnoma hujjatlarini tekshirishda keng qo'llaniladi. Platforma foydalanuvchining ichki huquqiy siyosatlari asosida shartnomani baholaydi, nomuvofiq bandlarni belgilaydi va avtomatik tahrir variantlarini taqdim etadi.

LawGeex'ning asosiy afzalliklari :

- **Vaqt tejalishi** — shartnoma tahlil qilish jarayonini 80 % gacha tezlashtiradi.
- **Aniqlik darajasi** — AI 94 % aniqlik bilan ishlaydi (inson mutaxassislarida bu ko'rsatkich 84-85 %).

- **Iqtisodiy samaradorlik** — Forrester hisobotiga ko'ra, LawGeex joriy etilgan tashkilotlarda **6 500 soatdan ortiq ish vaqti tejangan** va

209 investitsiya rentabelligi (ROI) qayd etilgan.

- **Standartizatsiya va xavfni kamaytirish** — barcha shartnomalar oldindan belgilangan siyosat asosida baholanadi, bu huquqiy xavflarni minimallashtiradi.

LawGeex shunchaki hujjatlarni o'qib chiqadigan vosita emasligini u hujjatlardan mazmunli xulosalar chiqarib, amaliy qaror qabul qilishni tezlashtiruvchi sun'iy intellekt tizimi sifatida faoliyat yuritishidan bilsak bo'ladi. Natijada advokatlar va yuridik firmalar o'z vaqtlarini texnik ishlar emas, balki strategik tahlil va mijoz bilan ishlashga yo'naltirish imkoniga ega bo'ladilar.

E-Advokat

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan joriy etilgan

“E-Advokat” axborot tizimi advokatlik faoliyatini raqamlashtirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tizim orqali advokatlar **Yuridik yordam axborot tizimi (e-advokat.uz)** orqali o'z shaxsiy kabinetlariga kirib, **elektron shakldagi advokatlik orderlarini** mustaqil ravishda rasmiylashtirish imkoniga ega.

Tizim **elektron raqamli imzo (ERI)** orqali tasdiqlanadi va bu jarayon advokatlik tuzilmalari rahbarlari bilan ortiqcha byurokratik muomalalarni qisqartiradi. Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, bu tizim advokatlarning vaqt va resurslarini tejab, ish samaradorligini sezilarli darajada oshirgan.




Shuningdek, **“Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom** (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023-yil 1-yanvardan kuchga kirgan, №432) advokatlik faoliyatini litsenziyalash, nazorat qilish va hisobot berish jarayonlarini to‘liq elektron shaklda amalga oshirish imkonini yaratdi. Ushbu chora-tadbirlar **“Raqamli O‘zbekiston – 2030”** strategiyasi doirasida yuridik xizmatlar shaffofligini ta’minlash, inson omilini kamaytirish hamda


LegalTech vositalarining huquqiy amaliyotda keng qo'llanilishini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Clio kompaniyasining “*Legal Trends Report 2024*” hisobotiga ko'ra, so'rovda ishtirok etgan advokatlarning **79 foizi** o'z ish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishni boshlagan (2023 yilda bu ko'rsatkich 19 foiz edi).

Mazkur o'sish Clio'ning “Intelligent Legal Work Platform” tizimi yordamida hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish, billing va mijozlar bilan muloqotni optimallashtirish orqali huquqiy xizmatlar sifatini oshirayotganini ko'rsatadi.



Bundan tashqaei , **LawGeex** kompaniyasining *Forrester Consulting* tomonidan tayyorlangan **“Total Economic Impact” (TEI)** hisobotida ushbu tizimdan foydalangan korxonalar o‘rtacha **209% ROI (sarmoyaning qaytimi)** va yiliga **6500 soatdan ortiq vaqt tejali**shiga erishganliklari qayd etilgan. Bu natijalar sun’iy intellekt asosida hujjatlarni avtomatik tahlil qilish va shartnoma tuzish jarayonlarini soddalashtirish orqali advokatlik firmalarining mehnat unumdorligini oshirganini tasdiqlaydi.



Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlarim natijasida aniqlanishicha, LegalTech vositalarining advokatlik amaliyotiga joriy etilishi huquqiy xizmatlar sifatini oshirishni va ularni ko'rsatish jarayonini soddalashtirish yaxshi sabab bo'lib xizmat qiladi. Bunga qo'shimcha sifatida raqobatbardosh yuridik muhitni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishini qo'shsak bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalar, yani bulardan, Clio, LawGeex va E-Advokatdek platformalarning amaliy qo'llanilishi shartnoma tahlilini soddalashtirish va mijozlar bilan elektron muloqotni takomillashtirish imkonini bermogda. Bu esa o'z navbatida, inson omilini kamaytirish, xatoliklarni minimallashtirish va xizmat ko'rsatish tezligini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, LegalTech texnologiyalarining keng ommalashishi advokatlik firmalarining mehnat unumdorligini 30–40 foizgacha oshirgan, sarmoya qaytimi (ROI) esa 200 foizdan yuqori natijalarni ko'rsatgan. Shuning uchun, O'zbekiston huquq tizimida ham **“Raqamli O'zbekiston – 2030”** strategiyasi doirasida yuridik faoliyatni elektron hujjat aylanishini yo'lga qo'yish va online xizmatlarni kengaytirish bo'yicha muhim bosqichlar amalga oshirilmoqda.

Lekin LegalTechning to'liq qudratini yuzaga chiqarish uchun raqamli infratuzilmani mustahkamlash va axborot xavfsizligini ta'minlashkabi tizimlar bilan cheklanib qolmasdan advokatlar raqamli savodxonligini oshirish va sun'iy intellektga asoslangan tizimlarni milliy qonunchilik talablariga tog'ri keltirish kerak.

Xulosa qilib aytganda, LegalTech vositalari yuridik amaliyotning transformatsion rivojlanish bosqichini ifodalashdagi o'rni va advokatlik institutining samaradorligi muhim o'rin egallabgina qolmay halolligi va ishonchliligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida - https://lex.uz/uz/docs/5030957?utm_source.
2. Clio. (2024). *Legal Trends Report 2024*. Retrieved from <https://www.clio.com/resources/legal-trends/2024-report/>.
3. LawGeex. (2024). <https://www.lawgeex.com/>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan joriy etilgan “E-Advokat” axborot tizimi- <https://e-advokat.uz/>.
5. Adliya vazirligi. (2024). *E-Advokat axborot tizimi*. Retrieved from <https://e-advokat.uz/>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 432-son Nizomi — <https://lex.uz/docs/6143599>.
7. Clio. (2024). *Legal Trends Report 2024*. Retrieved from <https://www.clio.com/resources/legal-trends/2024-report/>.
8. Forrester Consulting. (2024). *The Total Economic Impact™ of LawGeex Contract Review Automation*. Retrieved from <https://www.lawgeex.com/resources/tei-forrester/>.
9. (Manba: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi — [E-Advokat rasmiy sayti](#) va lex.uz — PF-6079-son Farmon, 2020-yil 5-oktabr).